



## SHARQNING ENG BUYUK ALLOMASI BO'LMISH IBN SINONING ILMIY XAZINASI VA IJODIY MEROSINING BUGUNGI ZAMONAVIY TIBBIYOT SOHASIDAGI AHAMIYATI

---

*Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi*  
*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti*  
*Pediatriya ishi fakulteti talabasi.*  
[sarvinozsanjarovna17@gmail.com](mailto:sarvinozsanjarovna17@gmail.com)

**Annotatsiya:** Biz ushbu maqola orqali haqiqiy ensiklopedist olim , o'z davridagi deyarli barcha fanlarda ilg'or bo'lgan , ularga oid ilmiy asarlar yaratgan, ijodiy xazinasi zamonlar osha bizgacha yetib kelgan tabobat ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino bobomizning ilmiy qo'lyozmalarini bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi haqida chuqur bilimga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Ibn Sino, karantin, tabobat, "Tib qonunlari" , anatomiya, osteologiya, 12 juft qovurg'a.

**Аннотация:** Благодаря этой статье мы получим глубокие знания о важности и актуальности научных рукописей нашего деда Абу Али ибн Сины, настоящего ученого- энциклопедиста, продвинутого практически во всех дисциплинах своего времени, создавшего связанные с ними научные труды и чьи творческое сокровище дошло до нас сквозь века.

**Ключевые слово:** Ибн Сина, карантин, "Медицинские законы", анатомия, остеология, 12 пар ребер.

**Annotation:** Through this article, we will gain deep knowledge about the importance and relevance of the scientific manuscripts of our grandfather Abu Ali ibn Sina, a true encyclopedist scientist, who was advanced in almost all disciplines of his time, who created scientific works related to them, and whose creative treasure has reached us through the ages.

**Key words:** Ibn Sina , quarantine, medicine," Medical laws",anatomy, osteology, 12 pairs of ribs.

### KIRISH:

*"Bekorhilik va aysh- ishrat nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning tug'ilishiga ham sabab bo'ladi"*

*Abu Ali ibn Sino*



### ASOSIY QISM:

Tib ilmida o'zining beqiyos o'rniga ega bo'lgan ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Asosiy qiziqishlari zamonaviy meditsina yangiliklari, gomeopatiya, xalq tabobatini o'rganish. Shu bilan birga Abu Ali ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug'ullangan, xususan tabobatni sevib o'rganadi. U o'zining o'tkir zehni tug'ma iste'dodi va mehnatsevarligi bilan darslarni tezda o'zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum bo'lgan narsalarni ham kitobdan mustaqil o'qib-o'rganib olar edi. Ayniqsa, tib ilmida u juda tez kamol topa boshladi. Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida dong chiqardi.

Ibn Sinoning ilm- fan va madaniyatga qo'shgan hissasi rad etib bo'lmas faktdir. Abu Ali ibn Sinoning qimmatli merosi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. O'n asrdan ko'proq vaqt davomida Abu Ali ibn Sinoning nomi butun dunyodagi o'lmas mutafakkir olimlar bilan bir qatorda turib kelmoqda. Shuningdek u 29 ta fan sohasidagi 450 dan ortiq asarlarning muallifi hisoblanadi, ulardan atigi 247 tasi saqlanib qolgan. Bu asarlarning barchasi olimlar tomonidan o'rganilgan va keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilingan deya olmaymiz. Ularning ayrimlari jahonning ko'p tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr etilib kelayotgan bo'lsa, ko'plari hali turli kutubxonalarda qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi.

Ibn Sino o'rta asr islom dunyosining eng ko'zga ko'ringan faylasufi va olimi sanaladi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asosiy merosi "Kitob al qonun fit-tib" bo'lib, bu kitob o'sha davrgacha tabobat borasidagi eng mukammal qo'llanma hisoblanadi. Bu kitobda tibbiyotning barcha sohaları anatomiya, fiziologiya, osteologiya, kasallikning belgilari, ularni aniqlash va davolash bo'yicha ilmiy izlanishlar yoritilgan. Ibn Sino ilmiy terminologiyasida "mizoj" tushunchasi organizmning o'ziga xos tabiati sifatida ishlatiladi. Mutafakkir olimni shubhasiz odam anatomiyasi asoschisi deb aytish mumkin. Bobomiz umurtqa pog'onasini ta'riflar ekan ularning sonini ham aniq aytib berganlar. Aristotel qovurg'alarni 8 ta deb aytgan bo'lsa, ibn Sino ularni 12 juft va ular erkak va ayollarda teng bo'ladi deganlar.

Ibn Sino ijodi shu bilan qadrlanadiki, u Tib qonunlari kitobida faqatgina o'z izlanishlari bilan bilan chegaralanmay, balki o'zidan oldin o'tgan olimlarning ishlari ustida ham mushohada yuritilgan .



## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyati va tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Bundan ming yil oldingi ulug' hakimning "Tib qonunlari" bebaho merosi bugungi kunda ham o'z mohiyati va ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Butun jahonga xavf solgan pandemiya paytida ibn Sinoning kaslliklar tarqalishini kamaytirish uchun 40 kunlik karantin metodidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, buyuk Abu Ali ibn Sino asarlari qayta tirildi desak mubolag'a bo'lmas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ibn Sino xalqaro jamg'armasini qo'llab –quvvatlash to'g'risida“gi 1999-yil 6-yanvardagi farmoni, hamda Respublika Sog'liqni Saqlash vazirligining 1999-yil 23-apreldagi buyrug'i bunga yorqin misoldir. Yana bir muhim tadbir tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv dasturiga ibn Sinoning tibbiyot fani bo'yicha qilgan ishlariga tegishli ma'lumotlar kiritilib, buyuk vatandoshimizning ta'limoti biz talabarga yetkazib berilmoqda. Tibbiyot bo'yicha o'qishni maqsad qilgan ekanman men hozir yaxshi o'qib o'rganishim, o'z bilim ko'nikmalirimni qo'llagan holda amaliyotda yangi yondashuvlar,yani metodlar joriy etishim zarur.

Hozirgi yangilanayotgan mustaqil diyorimizda biz talaba yoshlarga, bo'lajak shifokorlarga yurtboshimiz katta e'tibor qaratmoqdalar. Biz bunga javoban labbay deya faqat va faqat yaxshi bilim olishimiz, ajdodlarga munosib avlodlar bo'lmog'imiz darkor. Biz talabalar, shifokorlar va qolaversa butun xalqimiz jahon tanigan va tan olgan buyuk olim, taniqli jamoat arbobi bo'lmish hakim, mehribon ustoz va ajoyib insonning merosini chuqur o'rganib uni targ'ib etishimiz lozimdir.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

\*O'zbekiston miliy ensiklopediyasi (2000-2005)

\*Uzbekistan.travel., "Arboblar.uz"

\*F.N.Bahodirov ., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti 2005.